XALQ DEPUTATLARI OLTIARIQ TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 27-dekabr VII-3-016-11-151-K/24 Oltiariq tumani

Oltiariq tumanining 2025-yilgi mahalliy byudjetini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 24-moddalari, Byudjet kodeksining 27, 99-moddalari, “2025 yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi 2024-yil 24-dekabrdagi O‘RQ-1011-son Qonuniga muvofiq hamda O‘zbekiston Respublikasi Hisob palatasining 2024-yil 14-okyabrdagi 01-1239/11-sonli hamda Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2024-yil 25-dekabrdagi 01/51-1-26808-sonli ko‘rsatmalarini inobatga olib, O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6- va 24-moddalariga asosan xalq deputatlari tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasining “2025-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi Qonuni (keyingi o‘rinlarda Qonun deb yuritiladi) rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Qonunga hamda Xalq deputatlari Farg‘ona viloyati Kengashining 2024-yil 27-dekabr kungi VII-3-031-11-0-K/24-sonli qaroriga muvofiq, Oltiariq tumani mahalliy budjetining 2025-yilgi daromadlari **160 348 806.0 ming. so‘m** va xarajatlari **160 348 806.0 ming.so‘m** miqdorida tasdiqlanganligi inobatga olinsin.

3. Qonunning 12-moddasiga muvofiq:

Soliqlarning quyidagi turlari tumanlar va shaharlar budjetlariga to‘liq hajmda o‘tkaziladi:

jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i;

jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i;

mol-mulkni ijaraga berishdan olinadigan yillik daromad to‘g‘risidagi deklaratsiyaga asosan jismoniy shaxslar tomonidan to‘lanadigan, shuningdek yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan to‘lanadigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i;

suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq;

noruda qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq;

aylanmadan olinadigan soliq;

yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq (yirik soliq to‘lovchilar tomonidan to‘lanadigan soliqlar bundan mustasno);

yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i (yirik soliq to‘lovchilar tomonidan to‘lanadigan soliqlar bundan mustasno);

jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i tushumlarining kamida 50 foizi (yirik soliq to‘lovchilar tomonidan to‘lanadigan soliqlar bundan mustasno);

davlat aktivlarini ijaraga berishdan tushumlar.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlari ushbu moddaning birinchi qismida nazarda tutilgan daromad turlarini qo‘llaganda, tuman va shaharlar budjeti daromadlari xarajatlaridan ko‘p bo‘lsa yuqori turuvchi budjetlarga ajratmalarni ko‘zda tutishi mumkin.

Quyidagilar Qoraqalpog‘iston Respublikasining respublika budjetiga, viloyatlarning viloyat budjetlariga va Toshkent shahrining shahar budjetiga to‘liq hajmda o‘tkaziladi:

yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq (yirik soliq to‘lovchilar tomonidan to‘lanadigan soliqlar);

yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i (yirik soliq to‘lovchilar tomonidan to‘lanadigan soliqlar);

benzinni, dizel yoqilg‘isini va gazni yakuniy iste’molchilarga realizatsiya qilishdagi aksiz solig‘i;

tamaki mahsulotlari (import orqali kirgan mahsulotlardan tashqari) uchun aksiz solig‘i bo‘yicha tushumlar, tegishincha o‘tgan moliya yilining 1 iyul holatiga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligidan olingan Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri aholisi sonining respublika aholisi sonidagi ulushiga muvofiq.

Bunda daromadlar bo‘yicha prognozning bajarilmagan qismi Qoraqalpog‘iston Respublikasining respublika budjetiga, viloyatlarning viloyat budjetlariga va Toshkent shahrining shahar budjetiga respublika budjeti mablag‘lari hisobidan qoplanadi, daromadlar bo‘yicha prognozning oshirib bajarilgan qismi esa respublika budjeti ixtiyorida qoladi.

Soliqlar Qoraqalpog‘iston Respublikasining respublika budjetiga, viloyatlarning viloyat budjetlariga va Toshkent shahrining shahar budjetiga quyidagi ulushlarda:

jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘idan tushgan tushumlarning (jismoniy shaxslar mol-mulkni ijaraga berishdan olinadigan yillik daromad to‘g‘risidagi deklaratsiyaga asosan to‘laydigan, shuningdek yakka tartibdagi tadbirkorlar to‘laydigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘idan tashqari) Navoiy viloyatida 66 foizi, Toshkent viloyatida 51 foizi, Toshkent shahrida 12 foizi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi va boshqa viloyatlarda 100 foizi;

foyda solig‘idan tushgan tushumlarning (O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori bilan tasdiqlanadigan ro‘yxatga muvofiq yirik soliq to‘lovchilar, O‘zbekiston Respublikasida doimiy muassasa orqali faoliyatni amalga oshiruvchi O‘zbekiston Respublikasi norezidentlari tomonidan, shuningdek norezidentlarning to‘lov manbaida ushlab qolinadigan daromadlaridan to‘lanadigan foyda solig‘idan tashqari) Navoiy viloyatida 70 foizi, Toshkent viloyatida 49 foizi, Toshkent shahrida 12 foizi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi va boshqa viloyatlarda 100 foizi; alkogol mahsulotlari, shu jumladan, pivo (import orqali kirgan alkogol mahsulotlari va pivodan tashqari) uchun

ishlab chiqaruvchilar tomonidan to‘lanadigan aksiz solig‘ining Toshkent viloyati va Toshkent shahrida 5 foizi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi va boshqa viloyatlarda 30 foizi o‘tkaziladi.

O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjetiga qonunchilikda belgilangan miqdorlarda taqsimlanadigan quyidagi daromadlar respublika budjeti va Qoraqalpog‘iston Respublikasi budjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy budjetlari o‘rtasida taqsimlanadi:

davlat bojlari;

jarimalar;

yig‘imlar;

davlat daromadiga o‘tkazilgan mol-mulkni realizatsiya qilishdan tushumlar.

Qonunchilikda belgilangan miqdorlarda davlat aktivlarini sotishdan mahalliy budjetlarga tushadigan tushumlar tumanlar va shaharlar budjetlari hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasi budjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy budjetlari o‘rtasida teng ulushlarda taqsimlanadi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlari:

tegishli darajadagi mahalliy budjetlarga ajratiladigan soliqlarni va boshqa turdagi daromadlarni (shu jumladan ushbu moddaning birinchi, ikkinchi va to‘rtinchi qismlarida ko‘rsatilgan daromadlarni) hamda budjetlararo transfertlarni taqsimlashga;

daromadlarning prognozini oshirib bajarishdan olingan mablag‘larning bir qismini tumanlar va shaharlar budjetlariga hududni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarini amalga oshirish uchun berishga haqli.

Xalq deputatlari tumanlar va shaharlar Kengashlari tumanlar hamda shaharlarda mol-mulkni ijaraga beruvchi jismoniy shaxslar uchun belgilangan ijara to‘lovining eng kam stavkalariga:

ommaviy dam olishga va (yoki) turizmga ixtisoslashtirilgan ayrim hududlar bo‘yicha Toshkent shahri uchun belgilangan miqdorlargacha o‘sib boruvchi koeffitsientlarni joriy etishga;

ko‘chmas mulk ijara bozorida shakllangan haqiqiy ijara narxlaridan kelib chiqib 1,3 baravarigacha oshiruvchi koeffitsientlarni qo‘llashga haqli.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlari tuman va shaharlar budjetlariga to‘liq biriktirilgan daromadlarni Qoraqalpog‘iston Respublikasi respublika budjeti, viloyatlarning viloyat budjetlari va Toshkent shahrining shahar budjetiga yo‘naltirishi ta’qiqlanadi (bunda daromadlari xarajatlaridan yuqori bo‘lgan shahar va tumanlar mustasno).

Agar qonunchilikda daromadlarning budjet darajalari bo‘yicha taqsimlanishi nazarda tutilmagan bo‘lsa:

O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjetiga o‘tkazilishi lozim bo‘lgan daromadlarning turlari respublika budjetiga o‘tkaziladi;

mahalliy budjetlarga o‘tkazilishi lozim bo‘lgan daromadlarning turlari tegishincha Qoraqalpog‘iston Respublikasining respublika budjetiga, viloyatlarning viloyat budjetlariga va Toshkent shahrining shahar budjetiga o‘tkaziladi.

Budjet tizimi budjetlariga ortiqcha yoki noto‘g‘ri to‘langan tushumlarning summalarini qaytarish ularni qaytarish sanasida amalda bo‘lgan ajratmalar normativlariga muvofiq tegishli budjet tizimi budjetlaridan, bekor qilingan daromad turlari bo‘yicha esa respublika budjetidan amalga oshiriladi.

Davlat korxonalari hamda ustav kapitalida 50 foiz va undan ortiq miqdorda davlat ulushi mavjud bo‘lgan yuridik shaxslar (shu jumladan ularning tarkibiga kiruvchi korxonalar tomonidan) 2025 yilning 1 iyuliga qadar 2024 yil yakunlari bo‘yicha o‘z sof foydasining 50 foizi miqdorida ajratmalar va davlat ulushi bo‘yicha dividendlar hisoblanadi hamda 2025 yilning 1 sentabridan kechiktirmay tegishli darajadagi budjetlarga o‘tkaziladi. Shuningdek ustav kapitalida 50 foiz va undan ortiq miqdorda davlat ulushi mavjud bo‘lgan oltin va mis qazib oluvchi korxonalar 2024 va 2025 yillardagi davlat ulushi bo‘yicha sof foydasining 100 foizini O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjetiga dividendlar tarzida o‘tkazadi.

O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi ustav kapitalida 50 foiz va undan ortiq miqdorda davlat ulushi mavjud bo‘lgan oltin va mis qazib oluvchi korxonalar uchun dividendlar to‘lash miqdori va davriyligini qonunchilikda belgilangan tartibda aniqlashga haqliligi ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

4. Quyidagilar:

Oltiariq tumani mahalliy budjeti daromadlarining 2025-yil uchun asosiy prognoz ko‘rsatkichlari **1-ilova**ga muvofiq;

Oltiariq tumani mahalliy budjetidan 2025-yilda hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning umumiy cheklangan miqdorlari **2-ilova**ga muvofiq;

tuman mahalliy budjetiga umumdavlat soliqlari va boshqa majburiy to‘lovlar, shuningdek soliq bo‘lmagan to‘lovlar bo‘yicha belgilanadigan ajratma me’yorlari **3-ilova**ga muvofiq tasdiqlansin.

Bunda, ajratma meyorlari bo‘yicha viloyat mahalliy budjeti bilan tuman va shaharlar mahalliy budjetlarining taqsimotini o‘rnatilgan tartibda “Davlat moliyasini boshqarish” axborot tizimiga Farg‘ona viloyati G‘aznachilik xizmati boshqarmasi tomonidan kiritilishi belgilab qo‘yilsin.

5. Tuman mahalliy budjetlarining 2025-yil daromadlari va xarajatlariing chegaraviy hajmi **4-ilova**ga muvofiq ma’lumot uchun qabul qilinsin.

6. Tuman mahalliy budjeti shaxsiy g‘azna hisobvaraqlarida turgan budjet mablag‘larining 2025-yilda yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori **913.0 ming. so‘m** etib hamda tuman budjeti shaxsiy g‘azna hisobvaraqlarida turgan budjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori **5-ilova**ga muvofiq belgilansin.

7. Tuman mahalliy budjeti zaxira jamg‘armasi hajmi 2025-yil uchun **2 011 577.0 ming.so‘m** miqdorida belgilansin.

Bunda:

Sog‘liqni saqlash muassasalarini moliyalashtirish xarajatlari viloyat budjetiga o‘tkazilgan hududlarda Qonunning 8-moddasiga muvofiq, tumanlar va shaharlar budjetlarining zaxira jamg‘armalari oldingi yildagi (2024-yilgi) hajmidan kam bo‘lmagan miqdorlarda shakllantiriladi hamda qo‘shimcha mablag‘larni shakllantirish viloyat budjetining zaxira jamg‘armasini kamaytirish hisobiga amalga oshiriladi.

Tuman budjetlarining zaxira jamg‘armalari mablag‘larini amaldagi Budjet kodeksining 73-moddasiga muvofiq, budjet tizimi budjetlari shakllantirilayotganda oldindan nazarda tutib bo‘lmaydigan xarajatlarni, shuningdek ijtimoiy-iqtisodiy beqarorlik yuzaga kelgan vaziyatlarda amalga oshirilishi zarur bo‘lgan tadbirlarni moliyalashtirish uchun ajratilishi ta’minlansin.

8. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va Moliya Vazirligining Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun mutloq miqdorda belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffisiyentlar qo‘llash bo‘yicha xatiga ko‘ra, quyidagilar;

-yer solig‘ining amaldagi soliq stavkalari 2025-yilda 1,1 baravarga indeksasiya qilinishi kutilayotganligi;

-Farg‘ona viloyati Oltiariq tumani uchun qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar bo‘yicha yuridik shaxslarga 1 ga uchun 38,665 mln.so‘m va jismoniy shaxslarga 1 kv.m uchun 403,0 so‘m bazaviy soliq stavkasi belgilanishi ko‘zda tutilganligi;

-kelgusi yil bazaviy soliq stavkasiga nisbatan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffisiyentlar qo‘llashda keyingi yil mahalliy byudjet daromadlari prognozidan kelib chiqish bo‘yicha tavsiyalari ma’lumot uchun qabul qilinsin.

Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun jismoniy va yuridik shaxslar bo‘yicha mutloq miqdorda belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffisiyentlar miqdorlarini belgilash bo‘yicha Oltiariq tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limining hamda tuman Davlat soliq inspeksiyasining qo‘shma taklifi ma'qullansin.

Mazkur qaror bilan:

Qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar bo‘yicha mutloq miqdorda 1 gektar yer uchun belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar **6-ilovaga**, jismoniy shaxslar bo‘yicha (dehqon xo‘jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallagan yerlardan tashqari) mutloq miqdorda 1 m^2 uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar **7-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

9. Oltiariq tumani Xalq deputatlari Kengashlariga noruda qurilish materiallari uchun (sementdan tashqari) belgilangan qatiy stavkani 1.3 barobargacha oshiruvchi koeffitsient qo’llash vakolati **8-ilova**ga muvofiq tasdiqlansin.

10. Suv solig’i stavkasi bo’yicha Oltiariq tumani xalq deputatlari Kengashlariga belgilangan soliq stavkalariga 0.7 dan 1.5 gacha bo’lgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlarni belgilash vakolati **9-ilova**ga muvofiq tasdiqlansin.

11. Tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari I.Gafurov, Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (D.Nuriddinov), Soliq inspeksiyasi boshlig‘i (I.Sultonov) tuman hokimligi bilan birgalikda 2025-yil mahalliy budjeti uchun belgilangan ko‘rsatkichlarni o‘z vaqtida va samarali bajarilishini ta’minlash choralarini ko‘rsin.

12. Tuman hokimligi, mas’ul bo’limlar va tashkilotlar 2025-yil uchun ajratilayotgan budjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanish, budjet intizomiga rioya etilishi ustidan nazorat va mas’uliyatni yanada kuchaytirish, tegishli mahalliy budjetlarga soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning to‘liq tushimini ta’minlash hamda budjet daromadlar bazasini oshirish va qo‘shimcha rezervlarni aniqlash zarurligiga alohida e’tibor qaratsin.

13. Tuman Soliq inspeksiyasi boshlig‘i (I.Sultonov) O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida belgilangan vakolatlardan kelib chiqib:

soliqlarning to‘liq va to‘g‘ri hisoblanishini hamda ushbu soliqlarni o‘z vaqtida budjetga undirilishi ustidan soliq nazoratini o‘rnatish;

yer solig‘i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq va mol-mulk soliqlari bo‘yicha doimiy tahlililar o‘tkazgan holda, soliqlarni to‘liq hisoblanishini ta’minlash

hamda ushbu soliq to‘lovlari bo‘yicha soliq qarzdorligiga yo‘l qo‘ymaslik choralarini ko‘rish;

aylanmadan soliq turi bo‘yicha soliq to‘lovchilar tomonidan naqd pul aylanmalarining soliq hisobotlarida to‘liq aks ettirilishi ustidan doimiy soliq nazoratini o‘rnatish hamda zarur hollarda xronometraj va kameral soliq nazorati tadbirlarini o‘tkazish;

yer va mol-mulk solig‘ining soliq bazasini oshirish, ya’ni xatlov ishlarini samarali va muntazam tashkil etib borish vazifalari yuklatilsin.

14. Majburiy ijro byurosi (F.G‘iyosov), tuman Soliq inspeksiyasi boshlig‘i (I.Sultonov) bilan hamkorlikda soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha mavjud soliq qarzdorliklarini budjetga undirish yuzasidan tegishli choralar ko‘rib borsinlar hamda choraklar yakuni bilan soliq qarzdorliklarining chorak boshiga nisbatan kamayib borishi bo‘yicha barcha kompleks chora-tadbirlar ko‘rish vazifasi yuklatilsin.

15. Tuman irrigatsiya tizimlari xavza bo’limi (E.Tursunov) va Tuman Soliq inspeksiyasi boshlig‘i (I.Sultonov) tuman hokimligi bilan birgalikda tuman sug‘orishga sarflanayotgan suv hajmlari bo‘yicha aniq hisob-kitoblar yuritgan holda mazkur iste’mol hajmlari bo‘yicha suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqlarni to‘liq hisoblanishini hamda moliya yili yakuniga qadar mahalliy budjetlarga to‘liq undirib olish vazifasi yuklatilsin.

Bunda, qishloq xo‘jaligi korxonalari tomonidan iste’mol qilinayotgan suv resuslari hajmlari va ushbu hajmlar bo‘yicha hisoblanayotgan suv soliqlari bo‘yicha doimiy tahlillar o‘tkazishga alohida e’tibor qaratilsin.

16. Tuman ichki ishlar bo‘limi (I. Sotvoldiyev), Adliya bo’limi (A.Yuldashev) tuman budjetga hisoblangan boj, jarima va yig‘imlarni o‘z vaqtida to‘liq mahalliy budjetga undirish choralarini ko‘rib borsinlar.

17. Tuman Soliq inspeksiyasi boshlig‘i (I.Sultonov), tuman Qishloq xo‘jaligi bo’limi (U.Bozorov) tuman hokimining birinchi o‘rinbosari bilan hamkorlikda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 709-sonli qaroriga asosan qishloq xo‘jaligi yerlarini ijaraga berishda hisoblangan ijara va qo‘shimcha to‘lov summalarini belgilangan grafiklarga muvofiq mahalliy budjetlarga undirish choralarini ko‘rsinlar.

18. Xalq deputatlari tuman Kengashi hamda tuman hokimi O‘zbekiston Respublikasining Budjet kodeksining 27 va 28-moddalarida belgilangan budjet sohasidagi vakolatlaridan kelib chiqib, budjetga va davlat maqsadli jamg‘armalariga tushumlar to‘liq va o‘z vaqtida tushishi hamda budjet mablag‘larining maqsadli sarflanishi ustidan nazorat o‘rnatsin.

19. Tuman budjet mablag‘larini taqsimlovchilar har yili 25-yanvar kuniga qadar budjet mablag‘larining samarali va maqsadli sarflanganligi, xarajatlarning amaliy natijalari yuzasidan yillik faoliyati to‘g‘risida mahalliy Kengashlarga hisobot berib borsin.

Bunda, hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilar:

o‘z tasarrufidagi tizimda budjet intizomiga amal qilinishi ustidan nazorat qilish;

o‘zlarining va tasarrufidagi tashkilotlarning xarajatlar smetasi va shtat jadvallari hamda daromadlar va xarajatlar smetalarining to‘g‘ri tuzilishi;

budjetdan ajratilgan mablag‘larning maqsadli sarflanishi va maqsadli indikatorlarning to‘liq bajarilishi;

tasarrufidagi tizim tashkilotlariga budjetdan ajratiladigan mablag‘larning to‘g‘ri taqsimlanishi;

budjetdan ajratilgan mablag‘lardan maqsadli va samarali foydalanish, xususan ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat, dori-darmon, kommunal xizmatlar va davlat dasturlari uchun belgilangan xarajatlarni to‘liq rejalashtirilishi va o‘z vaqtida to‘lanishini;

budjet jarayonining ochiqligini ta’minlash maqsadida rasmiy veb-saytlarda ma’lumotlarni joylashtirib borilishini ta’minlasinlar.

20. Tuman hokimligi Axborot xizmati (A.Xonkeldiyev), Tuman Soliq inspeksiyasi boshlig‘i (I.Sultonov), Iqtisodiyot va moliya bo’limi (D.Nuriddinov) bilan birgalikda viloyat teleradiokompaniyasi hamda tuman boshqa ommaviy axborot vositalarida, hokimlik muassisligidagi gazetada Qonunda belgilangan ayrim soliqlar va to‘lov stavkalari, soliq solish tartiblari hamda boshqa ma’lumotlarni e’lon qilinishi hamda hokimliklarning rasmiy veb-saytlariga joylashtirilishini tashkil etsin.

21. Mazkur qaror tegishli tahririyatlar va ommaviy axborot vositalarida yoritilishi tavsiya etilsin hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

22. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari Oltiariq tumani Kengashining Mahalliy budjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari doimiy komissiyasi (Q.Axmedov) hamda tuman hokimining birinchi o‘rinbosari-iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i I.Gafurov zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi

TURDALIYEV
SHAMSIDDIN
ASKARALIYEVICH

Xalq deputatlari Oltiariq tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-3-016-11-151-K/24 -son qaroriga
1-ilova

Mahalliy byudjetlarining 2025-yildagi kutilayotgan daromadlari miqdori

ming so'mda

№	Daromad turlari	Oltiariq tumani
I	**Jami daromadlar**	**160 348 806**
II	**Mahalliy byudjet daromadlari prognozi**	**160 348 806**
1	Foyda solig'i	0
2	Aylanmadan olinadigan soliq	18 645 000
3	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i	74 635 680
4	Yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i	2 230 000
	aktsiz solig'i jami	0
5	*benzin, dizelg' yoqilg'isi va gazni oxirgi istehmolchiga realizatsiya qilishda to'lanadigan aktsiz solig'i*	*0*
6	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	8 985 000
7	Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'i	11 268 000
8	Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'i	15 916 000
9	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'i	22 804 000
10	Qurilish materiallari bo'yicha yer qahridan foydalanganlik uchun soliq	2 149 000
11	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	3 069 046
12	Davlat ulushi bo'yicha dividendlar va davlat korxonalari foydasidan ajratmalar	0
13	Davlat boji	0
14	Yig'imlar	0
15	Jarimalar	340 080
16	Davlat mulki bo'yicha ijara to'lovlari	307 000
III	**Transfert**	**0**

Xalq deputatlari Oltiariq tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-3-016-11-151-K/24 -son qaroriga
2-ilova

2025 yil uchun Oltiariq tumani byudjetidan byudjet mablag'lari taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag'larning cheklangan miqdorlari

ming so'm

	xarajatlar - jami	**160 348 806**
1.	**Ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga xarajatlar**	**66 076 761**
1.1	**Ta'lim sohasi**	**58 242 976**
	maktabgacha ta'lim tashkilotlari	32 320 087
	umumta'lim maktablari	12 567 836
	tuman maktabgacha va maktab ta’limi bo'limi	5 218 150
	tuman barkamol avlod bolalar maktabi	2 125 644
	tuman bolalar musiqa va san’at maktabi	3 242 657
	"mening maktabim" loyihasi	2 768 602
1.2	**Madaniyat sohasi**	**1 943 653**
	tuman madaniyat bo'limi	1 282 607
	tuman axborot kutubxona markazi	661 046
1.3	**Sport sohasi**	**5 706 107**
	tuman sport maktabi	5 706 107
1.4	ozodlikdan mahrum etish jazosini o'tab bo'lgan fuqarolarga «dastlabki ijtimoiy-moddiy yordam paketi»	34 650
1.5	ijtimoiy ko'nikma markazlari	149 375
2.	**Iqtisodiyot xarajatlari**	**25 343 985**
2.1	obodonlashtirish	14 493 340
2.2	ichki xo'jalik avtomobil yo'llarni ta'mirlash xarajatlari	4 187 853
2.3	suv yetkazib berish xizmati davlat muassasasi	3 382 234
2.4	fermerlar buxgalteriyasini saqlash xarajatlari	335 195
2.5	Hayvon kasalliklari tashxisi va oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligi davlat markazi	400 363
2.6	"mahalla byudjeti" jamg'armasi	2 545 000
3.	**Davlat boshqaruv organlarini saqlash xarajatlari**	**29 137 860**
3.1	tuman hokimligi	2 625 895
3.2	xalq qabulxonasi	209 308
3.3	iqtisodiyot va moliya bo'limi	2 221 231

3.4	mahallabay ishlash va tadbirkorlikni rivojlantirish markazi	7 920 913
3.5	oila va xotin-qizlar bo'limi	2 856 054
3.6	madaniyat bo'limi (apparat)	129 254
3.7	kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish markazi	2 184 993
3.8	Yoshlar ishlari agentligi tuman bo'limi	8 353 177
3.9	Xalq deputatlari tuman kengashi kotibiyati	252 131
3.10	Veterinariya bo'limi	2 384 904
4.	**Zahira jamg'armasi**	**2 011 577**
5.	**Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi**	**37 778 623**
6.	**Boshqa xarajatlar**	**0,0**

Xalq deputatlari Oltiariq tumani Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-3-016-11-151-K/24 -son qaroriga
3-ilova

№	Hududlar nomi	jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i				foyda solig'i				alkogol mahsulotlari (pivodan tashqari)				pivo			
		tuman (shahar)lar byudjetiga		viloyatning viloyat byudjetiga		tuman (shahar)lar byudjetiga		viloyatning viloyat byudjetiga		tuman (shahar)lar byudjetiga		viloyatning viloyat byudjetiga		tuman (shahar)lar byudjetiga		viloyatning viloyat byudjetiga	
		yirik soliq tulovchilar	Hududiy soliq tulovchilar	yirik soliq tulovchilar	Hududiy soliq tulovchilar	yirik soliq tulovchilar	Hududiy soliq tulovchilar	yirik soliq tulovchilar	Hududiy solik tulovchilar	yirik solik tulovchilar	Hududiy solik tulovchilar	yirik soliq tulovchilar	Hududiy solik tulovchilar	yirik soliq tulovchilar	Hududiy solik tulovchilar	yirik soliq tulovchilar	Hududiy solik tulovchilar
1	Oltiariq tumani	0%	97 %	100 %	3%	0%	0%	100 %	100 %	0%	0%	100 %	100%	0%	0%	100 %	100%

benzin, dizelь yoqilg'isi va gazni oxirgi iste'molchiga realizatsiya qilishda to'lanadigan aktsiz solig'i	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'i	Qurilish materiallari bo'yicha yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq	suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq

tuman (shahar)lar byudjetiga		viloyatning viloyat byudjetiga		tuman (shahar)lar byudjetiga		viloyatning viloyat byudjetiga		tuman (shahar)lar byudjetiga		viloyatning viloyat byudjetiga			tuman (shahar)lar byudjetiga		viloyatning viloyat byudjetiga		tuman (shahar)lar byudjetiga		viloyatning viloyat byudjetiga	
yirik solik tulovchilar	Hududiy solik tulovchilar	yirik solik tulovchilar	Hududiy solik tulovchilar	yirik solik tulovchilar	Hududiy solik tulovchilar	yirik solik tulovchilar	Hududiy solik tulovchilar	yirik solik tulovchilar	Hududiy solik tulovchilar	yirik solik tulovchilar	Hududiy solik tulovchilar	yirik solik tulovchilar	Hududiy solik tulovchilar	yirik solik tulovchilar	Hududiy solik tulovchilar	yirik solik tulovchilar	Hududiy solik tulovchilar	yirik solik tulovchilar	Hududiy solik tulovchilar	yirik solik tulovchilar	Hududiy solik tulovchilar
0%	0%	100%	100%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	100%	0%	0%	100%	0%

davlat ulushi bo'yicha dividendlar				aylanmadan soliq		davlat mulki buyicha ijara tulovlari		davlat boji		jarima		yig'imlar	
tuman (shahar)lar byudjetiga		viloyatning viloyat byudjetiga		tuman (shahar)lar byudjetiga	viloyatning viloyat byudjetiga	tuman (shahar)lar byudjetiga	viloyatning viloyat byudjetiga	tuman (shahar)lar byudjetiga	viloyatning viloyat byudjetiga	tuman (shahar)lar byudjetiga	viloyatning viloyat byudjetiga	tuman (shahar)lar byudjetiga	viloyatning viloyat byudjetiga
yirik solik tulovchilar	Hududiy solik tulovchilar	yirik solik tulovchilar	Hududiy solik tulovchilar										
0%	0%	100%	100%	100%	0%	100%	0%	0%	100%	3%	97%	0%	100%

Xalq deputatlari Oltiariq tumani Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-3-016-11-151-K/24 -son qaroriga
4-ilova

Tuman mahalliy byudjetlarining 2025 yil daromadlari va xarajatlariing chegaraviy hajmi

ming so'mda

Hudud nomi	**daromad**	**xarajat**
Jami	**160 348 806,0**	**160 348 806,0**
Oltiariq tumani	160 348 806,0	160 348 806,0

Xalq deputatlari Oltiariq tumani Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-3-016-11-151-K/24 -son qaroriga
5-ilova

2025 yilda tuman mahalliy byudjetlarida aylanma kassa mablag'larining yo'l qo'yiladigan eng kam miqdori

ming so'mda

t/r	Hudud nomi	miqdor
1	Oltiariq tumani	913 000,0

Xalq deputatlari Oltiariq tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-3-016-11-151-K/24 -son qaroriga
6-ilova

Qishloq xo'jaligi uchun mo'ljallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar bo'yicha mutloq miqdorda belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar

ming so'mda

t/r	Tuman nomi	MFY lar nomi	koeffitsient (0,7 dan 3,0 gacha)	yer solig'i stavkasi 2025 yil uchun (1 ga uchun)
1	Oltiariq tumani	Oltiariq mfy	0,90	34 799
2	Oltiariq tumani	Shodlik mfy	0,90	34 799
3	Oltiariq tumani	Bozorboshi mfy	0,90	34 799
4	Oltiariq tumani	Bug'doychi mfy	0,90	34 799
5	Oltiariq tumani	Toshkent mfy	0,90	34 799
6	Oltiariq tumani	Chinortagi mfy	0,90	34 799
7	Oltiariq tumani	Mirfozil mfy	0,90	34 799
8	Oltiariq tumani	Bo'ston mfy	0,90	34 799
9	Oltiariq tumani	Ko'lbo'yi mfy	0,90	34 799
10	Oltiariq tumani	Uzumchi mfy	0,90	34 799
11	Oltiariq tumani	Zarxal mfy	0,90	34 799
12	Oltiariq tumani	Ko'mirchi mfy	0,90	34 799
13	Oltiariq tumani	Oq-Oltin mfy	0,90	34 799
14	Oltiariq tumani	Olmozor mfy	0,90	34 799
15	Oltiariq tumani	Muqimiy mfy	0,90	34 799
16	Oltiariq tumani	Xo'jaqo'rg'on mfy	0,90	34 799
17	Oltiariq tumani	Yuksalish mfy	0,90	34 799
18	Oltiariq tumani	Maorif mfy	0,90	34 799
19	Oltiariq tumani	Yangiqo'rg'on mfy	0,90	34 799
20	Oltiariq tumani	Navbaxor mfy	0,90	34 799

21	Oltiariq tumani	Beglar mfy	0,90	34 799
22	Oltiariq tumani	Usmonobod mfy	0,90	34 799
23	Oltiariq tumani	Jo'rak mfy	0,90	34 799
24	Oltiariq tumani	Sertut mfy	0,90	34 799
25	Oltiariq tumani	Mustaqillik mfy	0,90	34 799
26	Oltiariq tumani	Farovon mfy	0,90	34 799
27	Oltiariq tumani	Istiqlol mfy	0,90	34 799
28	Oltiariq tumani	Birlashgan mfy	0,90	34 799
29	Oltiariq tumani	Qo'rg'oncha mfy	0,90	34 799
30	Oltiariq tumani	Jarqo'g'on mfy	0,90	34 799
31	Oltiariq tumani	Eskiarab mfy	0,90	34 799
32	Oltiariq tumani	G'ayrat mfy	0,90	34 799
33	Oltiariq tumani	Yangiaraq mfy	0,72	27 932
34	Oltiariq tumani	Katput mfy	0,72	27 932
35	Oltiariq tumani	Tolko'cha mfy	0,72	27 932
36	Oltiariq tumani	Shalola mfy	0,72	27 932
37	Oltiariq tumani	Gulobod mfy	0,72	27 932
38	Oltiariq tumani	Zilol mfy	0,72	27 932
39	Oltiariq tumani	Bunyodkor mfy	0,72	27 932
40	Oltiariq tumani	Yangiarab mfy	0,72	27 932
41	Oltiariq tumani	Chordara mfy	0,72	27 932
42	Oltiariq tumani	Tegirmonboshi mfy	0,72	27 932
43	Oltiariq tumani	Zilxa mfy	0,72	27 932
44	Oltiariq tumani	Yangiturmush mfy	0,72	27 932
45	Oltiariq tumani	Fayziobod mfy	0,72	27 932
46	Oltiariq tumani	Ustoz mfy	0,72	27 932
47	Oltiariq tumani	Navqiron mfy	0,72	27 932
48	Oltiariq tumani	Qaxramon mfy	0,72	27 932
49	Oltiariq tumani	Oqbo'yra mfy	0,72	27 932

50	Oltiariq tumani	Jarariq mfy	0,72	27 932
51	Oltiariq tumani	Shodiyona mfy	0,72	27 932
52	Oltiariq tumani	Quvurboshi mfy	0,90	34 799
53	Oltiariq tumani	Poloson mfy	0,90	34 799
54	Oltiariq tumani	Beruniy mfy	0,90	34 799
55	Oltiariq tumani	Ibn-Sino mfy	0,90	34 799
56	Oltiariq tumani	Yoshlik mfy	0,90	34 799
57	Oltiariq tumani	Do'stlik mfy	0,90	34 799
58	Oltiariq tumani	Yangixayot mfy	0,90	34 799
59	Oltiariq tumani	Navoiy mfy	1,10	42 532
60	Oltiariq tumani	O'zbekiston mfy	1,10	42 532
61	Oltiariq tumani	Guliston mfy	1,10	42 532
62	Oltiariq tumani	X.Olimjon mfy	1,10	42 532
63	Oltiariq tumani	Tinchlik mfy	1,10	42 532
64	Oltiariq tumani	Obod mfy	1,10	42 532
65	Oltiariq tumani	Jonibek mfy	0,72	27 932
66	Oltiariq tumani	Qiziltepa mfy	0,72	27 932
67	Oltiariq tumani	Azimobod mfy	0,72	27 932
68	Oltiariq tumani	Qapchug'ay mfy	0,90	34 799
69	Oltiariq tumani	Povulg'on mfy	0,90	34 799
70	Oltiariq tumani	Yangichek mfy	0,90	34 799
71	Oltiariq tumani	Toshobod mfy	0,90	34 799
72	Oltiariq tumani	SHarq MFY	0,90	34 799

Xalq deputatlari Oltiariq tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-3-016-11-151-K/24 -son qaroriga
7-ilova

Jismoniy shaxslar bo'yicha (dehqon xo'jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo'jaligiga mo'ljallagan yerlardan tashqari) mutloq miqdorda 1 kv.m. uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar

so'mda

t/r	Tuman nomi	MFY lar nomi	koeffitsient (0,7 dan 3,0 gacha)	er solig'i stavkasi 2025 yil uchun (1 kv uchun)
1	Oltiariq tumani	Oltiariq mfy	1,01	407,0
2	Oltiariq tumani	Shodlik mfy	1,01	407,0
3	Oltiariq tumani	Bozorboshi mfy	1,01	407,0
4	Oltiariq tumani	Bug'doychi mfy	1,01	407,0
5	Oltiariq tumani	Toshkent mfy	1,01	407,0
6	Oltiariq tumani	Chinortagi mfy	1,01	407,0
7	Oltiariq tumani	Mirfozil mfy	1,01	407,0
8	Oltiariq tumani	Bo'ston mfy	1,01	407,0
9	Oltiariq tumani	Ko'lbo'yi mfy	1,01	407,0
10	Oltiariq tumani	Uzumchi mfy	1,01	407,0
11	Oltiariq tumani	Zarxal mfy	1,01	407,0
12	Oltiariq tumani	Ko'mirchi mfy	1,01	407,0
13	Oltiariq tumani	Oq-oltin mfy	1,01	407,0
14	Oltiariq tumani	Olmozor mfy	1,01	407,0
15	Oltiariq tumani	Muqimiy mfy	1,01	407,0
16	Oltiariq tumani	Xo'jaqo'rg'on mfy	1,01	407,0
17	Oltiariq tumani	Yuksalish mfy	1,01	407,0
18	Oltiariq tumani	Maorif mfy	1,01	407,0
19	Oltiariq tumani	Yangiqo'rg'on mfy	1,01	407,0
20	Oltiariq tumani	Navbaxor mfy	1,01	407,0
21	Oltiariq tumani	Beglar mfy	1,01	407,0
22	Oltiariq tumani	Usmonobod mfy	1,01	407,0
23	Oltiariq tumani	Jo'rak mfy	1,01	407,0
24	Oltiariq tumani	Sertut mfy	1,01	407,0
25	Oltiariq tumani	Mustaqillik mfy	1,01	407,0
26	Oltiariq tumani	Farovon mfy	1,01	407,0
27	Oltiariq tumani	Istiqlol mfy	1,01	407,0
28	Oltiariq tumani	Birlashgan mfy	1,01	407,0
29	Oltiariq tumani	Qo'rg'oncha mfy	1,01	407,0
30	Oltiariq tumani	Jarqo'g'on mfy	1,01	407,0
31	Oltiariq tumani	Eskiarab mfy	1,01	407,0
32	Oltiariq tumani	G'ayrat mfy	1,01	407,0
33	Oltiariq tumani	Yangiaraq mfy	0,91	366,7

34	Oltiariq tumani	Katput mfy	0,91	366,7
35	Oltiariq tumani	Tolko'cha mfy	0,91	366,7
36	Oltiariq tumani	Shalola mfy	0,91	366,7
37	Oltiariq tumani	Gulobod mfy	0,91	366,7
38	Oltiariq tumani	Zilol mfy	0,91	366,7
39	Oltiariq tumani	Bunyodkor mfy	0,91	366,7
40	Oltiariq tumani	Yangiarab mfy	0,91	366,7
41	Oltiariq tumani	Chordara mfy	0,91	366,7
42	Oltiariq tumani	Tegirmonboshi mfy	1,01	407,0
43	Oltiariq tumani	Zilxa mfy	1,01	407,0
44	Oltiariq tumani	Yangiturmush mfy	1,01	407,0
45	Oltiariq tumani	Fayziobod mfy	1,01	407,0
46	Oltiariq tumani	Ustoz mfy	1,01	407,0
47	Oltiariq tumani	Navqiron mfy	1,01	407,0
48	Oltiariq tumani	Qaxramon mfy	1,01	407,0
49	Oltiariq tumani	Oqbo'yra mfy	1,01	407,0
50	Oltiariq tumani	Jarariq mfy	1,01	407,0
51	Oltiariq tumani	Shodiyona mfy	1,01	407,0
52	Oltiariq tumani	Quvurboshi mfy	1,01	407,0
53	Oltiariq tumani	Poloson mfy	1,01	407,0
54	Oltiariq tumani	Beruniy mfy	1,01	407,0
55	Oltiariq tumani	Ibn-Sino mfy	1,01	407,0
56	Oltiariq tumani	Yoshlik mfy	1,01	407,0
57	Oltiariq tumani	Do'stlik mfy	1,01	407,0
58	Oltiariq tumani	Yangixayot mfy	1,01	407,0
59	Oltiariq tumani	Navoiy mfy	1,01	407,0
60	Oltiariq tumani	O'zbekiston mfy	1,01	407,0
61	Oltiariq tumani	Guliston mfy	1,01	407,0
62	Oltiariq tumani	X.Olimjon mfy	1,01	407,0
63	Oltiariq tumani	Tinchlik mfy	1,01	407,0
64	Oltiariq tumani	Obod mfy	1,01	407,0
65	Oltiariq tumani	Jonibek mfy	0,91	366,7
66	Oltiariq tumani	Qiziltepa mfy	0,91	366,7
67	Oltiariq tumani	Azimobod mfy	0,91	366,7
68	Oltiariq tumani	Qapchug'ay mfy	1,01	407,0
69	Oltiariq tumani	Povulg'on mfy	1,01	407,0
70	Oltiariq tumani	Yangichek mfy	1,01	407,0
71	Oltiariq tumani	Toshobod mfy	1,01	407,0
72	Oltiariq tumani	Sharq mfy	1,01	407,0

Xalq deputatlari Oltiariq tumani Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-3-016-11-151-K/24 -son qaroriga
8-ilova

Noruda qurilish materiallari uchun (tsementdan tashqari) belgilangan qat'iy stavkalar

so'mda

t/r	Hududlar	Qurilish qumi, qumtoshlar, qum-shag'al aralashmasi			G'isht-cherepitsa xom ashyosi, lyosslar va lyossimon jinslar		
		koeffitsient	foiz	mutloq qiymat	koeffitsient	foiz	mutloq qiymat
1	Oltiariq tumani	1,01		5 050,0	1,100	5,0	5 082,0

Xalq deputatlari Oltiariq tumani Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-3-016-11-151-K/24 -son qaroriga
9-ilova

Suv solig'i uchun qo'llaniladigan koeffitsient va mutloq qiymat

so'mda

t/r	Hududlar	Iqtisodiyotni barcha tarmoqlari hamda sanoat korxonalari uchun				Alkogolsiz ichimliklarni hamda pivo va vinodan tashqari alkogol mahsulotlarini ishlab chiqarish uchun		Avtotransport vositalarini yuvish uchun	
		yer usti		yer osti		koeffitsient	mutloq qiymat	koeffitsient	mutloq qiymat
		koeffitsient	mutloq qiymat	koeffitsient	mutloq qiymat				
1	Oltiariq tumani	1,05	735,0	1,04	884,0	1,00	38 000,0	1,05	15 750,0